

**ISTE'MOLCHILARGA ZARAR YETKAZILGAN HOLATLARDA
XALQARO SUD AMALIYOTI VA ZARARLARNI UNDIRISH
MEXANIZMLARI**

Rahmonov Abbos G'anisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: abbosraxmonov005@gmail.com

Tel: +998 97 229 41 47

Annotatsiya: *Ushbu tezisda transchegaraviy iste'molchilik nizolari doirasida xalqaro sud amaliyoti va zararlarni undirish mexanizmlarining huquqiy xususiyatlari tahlil qilingan. Biz AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarining sud presedentlari, arbitraj yondashuvlari va normativ bazalari asosida iste'molchilar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish mexanizmlarini solishtirdik. Xususan, "product liability", "strict liability", guruh da'volari, jazolovchi to'lovlar va xalqaro arbitraj qarorlarining ijrosiga doir masalalar yoritilgan. Shuningdek, Hague Judgments Convention, ODR tizimlari va raqamli arbitraj platformalarining zamonaviy huquqiy vosita sifatidagi roli ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Iste'molchi huquqlari, xalqaro sud amaliyoti, keys, arbitraj yurisdiksiyasi, raqamli nizolarni hal etish.*

Kirish. Iste'molchilarning huquqiy maqomini himoya qilish va ularning zararlarini undirish bugungi global huquqiy tartibotda dolzarb va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro savdo, transchegaraviy xizmatlar va raqamli iqtisodiyotning kengayishi iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni bir necha yurisdiksiya doirasida murakkablashtirib yubormoqda. Bunday sharoitda iste'molchiga yetkazilgan zarar faqat mahalliy emas, balki xalqaro sudlarda yoki arbitraj instansiyalarida ham ko'rib chiqilmoqda. Xalqaro huquqiy amaliyotda, ayniqsa AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarining sud presedenti, qonunchilik va arbitraj qarorlari iste'molchi

manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirishda yetakchi rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonda “product liability”, “strict liability”, “punitive damages”, “class action” kabi yondashuvlar va tamoyillar tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Bugungi global iqtisodiy sharoitda iste'molchilar ko'plab mahsulotlar va xizmatlardan transchegaraviy tarzda foydalanmoqda. Bu esa, iste'molchilarga zarar yetkazilgan hollarda nizolarning murakkablashishiga va bir nechta davlat yurisdiksiyalariga taalluqli bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, onlayn savdo, raqamli xizmatlar va transmilliy kompaniyalar faoliyati bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Bunday holatlarda xalqaro sudlar va arbitraj organlari o'z yurisdiksiyasini qanday asosda belgilashi masalasi dolzarb tus oladi. Ushbu yurisdiksiya odatda xalqaro shartnomalar, tomonlar o'rtasidagi kelishuvlar yoki xalqaro odat huquqi normalariga tayangan holda belgilanadi.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida, xususan Bryussel I (Recast) reglamentining 17–21-moddalariga ko'ra, iste'molchi bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha yurisdiksiya faqat iste'molchining doimiy yashash joyiga bog'lab belgilanadi (1). Bu yondashuv iste'molchining manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan. AQShda esa boshqa yondashuvlar amalda bo'ladi. Masalan, “minimum contact” yoki “long-arm statutes” kabi tamoyillar orqali sudning vakolati belgilanadi. Biroq korporatsiyalar o'z shartnomalarida huquqiy nizolarni o'zlariga qulay davlatlarda ko'rib chiqishni belgilab qo'ygan bo'lsa, bu yurisdiksiyalar doimo iste'molchi foydasiga ishlayvermaydi.

Bundan tashqari, AQSh va Buyuk Britaniyada keng qo'llaniladigan “forum non conveniens” tamoyiliga ko'ra, sud eng maqbul, ya'ni mantiqan eng qulay va adolatli hisoblangan yurisdiksiyani tanlash huquqiga ega. Masalan, “Piper Aircraft Co. v. Reyno” ishida AQSh Oliy sudi da'voni boshqa davlat sudiga o'tkazishni maqsadga muvofiq deb topgan (2). Biroq bu yondashuvning tanqidiy jihati shundaki, u xalqaro miqyosdagi kuchli korporatsiyalar foydasiga ishlashi, iste'molchining esa huquqiy da'vosini zaiflashtirishi mumkin.

Xalqaro arbitraj tizimi asosan tijorat nizolarini muqobil hal etish mexanizmi

sifatida shakllangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda iste'molchilar bilan bog'liq da'volar ham tobora ko'proq arbitraj yurisdiksiyasi doirasiga jalb qilinadi. Biroq bu tendensiya iste'molchilar huquqlari bilan bog'liq jiddiy savollarni yuzaga keltiradi. Asosiy muammo — arbitraj bandining mavjudligi va u bo'yicha taraflarning, ayniqsa iste'molchining ongli va erkin roziligidir. Amaliyotda ko'plab iste'molchilar shartnomalarni imzolash jarayonida arbitraj bandining mazmuni va oqibatlaridan bexabar bo'ladi. Yevropa Ittifoqi Adliya sudi bu masalada iste'molchi manfaatlariga ustuvorlik beruvchi qarorlarni qabul qilgan. Jumladan, “Asturcom Telecomunicaciones SL v. Cristina Rodríguez Nogueira” ishida sud shartnomada mavjud arbitraj bandi iste'molchi tomonidan ongli va erkin imzolangan bo'lsa, u majburiy kuchga ega emasligini ta'kidlagan (3). Bunday yondashuv Yevropa huquqining “pro-consumer” ruhiga mos keladi va shaxsiy muvozanatsiz shartlar orqali iste'molchini kuchsiz holatga tushirishga yo'l qo'ymaydi.

AQShda esa aksincha, Federal Arbitration Act (FAA) orqali arbitraj bandlariga keng himoya berilgan. Ko'plab sudlar hatto korporatsiyalar tomonidan taklif qilingan standart shartnomalar doirasidagi arbitraj bandlarini ham majburiy deb topadi. Bu esa, amaliyotda iste'molchilarni milliy sudlarga murojaat qilish huquqidan mahrum qilgan holatlarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro miqyosda esa Nyu-York Konvensiyasi arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha eng asosiy xalqaro huquqiy asosdir. Hozirgi kunga kelib, 170 dan ortiq davlat ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Konvensiyaga ko'ra, agar arbitraj qarori jamoat tartibiga zid bo'lmasa va tomonlar o'rtasida haqiqiy rozilik mavjud bo'lsa, u boshqa davlat hududida ham tan olinadi va ijro etiladi. Shu bilan birga, Konvensiyada shaffoflik va adolat tamoyillariga zid hollarda ijrodan bosh tortish huquqi saqlab qolingan. Shunday qilib, xalqaro arbitraj institutlari orqali iste'molchilar zararini ko'rib chiqish mumkin bo'lsa-da, bu mexanizmning adolatli ishlashi iste'molchining haqiqiy roziligi, teng muzokara kuchi va jamoat tartibiga muvofiqlik tamoyillariga qat'iy rioya etilishiga bog'liq bo'ladi.

Iste'molchilarga yetkazilgan zararlarni undirish borasida xalqaro sud amaliyoti, ayniqsa AQSh yurisdiksiyasida shakllangan presedentlar, global huquqiy

tajribaning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. AQSh fuqarolik huquqida mahsulot uchun javobgarlik – “product liability” doktrinasini eng muhim konsept sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvga asos solgan tarixiy ish – “MacPherson v. Buick Motor Co.” bo‘lib, sud avtomobil ishlab chiqaruvchisini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridor bo‘lmagan iste’molchiga nisbatan ham javobgar deb topgan (4). Bu presedent mahsulot ishlab chiqaruvchining mas’uliyatini shartnomaviy doiradan chiqargan va iste’molchilar xavfsizligini ustuvor qo‘ygan. Keyingi muhim ish – “Greenman v. Yuba Power Products, Inc.” bo‘lib, unda Kaliforniya Oliy sudi aybsizlikka asoslangan javobgarlik – “strict liability” prinsipini mustahkamladi (5). Bu yondashuvga ko‘ra, mahsulotda nuqson mavjudligi va ushbu nuqson zarar yetkazganining isboti yetarli bo‘ladi; iste’molchidan ishlab chiqaruvchining aybini isbotlash talab qilinmaydi.

Yana bir e’tiborga molik ish – “Sanofi Pasteur MSD v. W. (C-621/15)” bo‘lib, unda sud, vaksina sabab zarar yuzaga kelgan holatlarda to‘liq ilmiy isbot bo‘lmasa ham, epidemiologik yoki vaqtli bog‘liqlik asosida javobgarlikni tan olish mumkinligini bildirdi (6). Bu “pro-consumer” yondashuv Yevropa sudlari amaliyotining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shuningdek, Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR) ham iste’molchi xavfsizligi bilan bog‘liq nizolarni, ayniqsa davlatning loqaydligi bilan bog‘liq hollarda ko‘rib chiqadi. “Öneryıldız v. Turkey” ishida chiqindixonadagi portlash oqibatida fuqarolarning vafoti holatida sud hayot huquqi buzilganini tan olib, davlat mas’uliyatini belgiladi (7). Bu yondashuv iste’molchi xavfsizligini inson huquqlari doirasida baholashning yorqin misolidir.

Osiyo davlatlari, xususan, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya so‘nggi yillarda iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik va sud amaliyotini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Xitoyda 1993-yildan buyon amalda bo‘lgan “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun asosida sudlar onlayn platformalarning nafaqat vositachi, balki faol tijorat subyekti sifatida mas’uliyatini belgilab berilgan.

“Zararlarni undirishdagi asosiy muammolardan biri – xalqaro arbitraj qarorlarining boshqa davlatlarda tan olinishi va ijro qilinishidir”, deb yozadi

Devenney Ston. “Ordre public” (jamoat tartibi) istisnolari, rozilik hujjatlarining yetishmasligi yoki javobgarlikning mol-mulki yo‘qligi kabi omillar arbitraj qarorlarining amalda bajarilishini murakkablashtiradi. Ayniqsa, AQShda keng qo‘llaniladigan “punitive damages” ko‘plab Yevropa yoki Osiyo davlatlari qonunchiligida tan olinmasligi mumkin. Ushbu muammolarning oldini olishda zamonaviy vositalar va huquqiy mexanizmlar muhim rol o‘ynay boshladi. Xususan, vositachilik (mediation) va onlayn nizolarni hal qilish platformalari (ODR – Online Dispute Resolution) hamda blockchain texnologiyasiga asoslangan arbitraj tizimlari (e-arbitration, AI-ODR) xalqaro miqyosda nisbatan arzon, tez va shaffof vosita sifatida tanilmoqda. UNCITRAL Mediation Rules vositachilik jarayonining protsessual asoslarini belgilab bergan bo‘lsa, Yevropa Ittifoqining ODR platformasi transchegaraviy iste’molchilik nizolarini masofaviy hal qilishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Iste’molchilarga zarar yetkazilgan hollarda xalqaro sud amaliyoti va zararlarni undirish mexanizmlari bugungi globallashtirilgan huquqiy muhitda tobora murakkab va dolzarb masalaga aylanmoqda. Transchegaraviy xizmatlar va raqamli savdo kengaygan sari, bir nechta yurisdiksiyalarni qamrab oluvchi nizolar yuzaga kelmoqda va bu holat yurisdiksiya tanlovi, arbitraj bandlarining haqiqiylik va sud qarorlarining tan olinishi kabi masalalarda murakkablikni keltirib chiqarmoqda. Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribasi iste’molchilar foydasiga huquqiy mexanizmlarni rivojlantirishda yetakchi o‘rin tutmoqda. AQShda “product liability”, “strict liability”, “class action” va “punitive damages” kabi yondashuvlar korporativ javobgarlikni kuchaytirsa, Yevropada ehtiyotkorlik tamoyili va “pro-consumer” yondashuv asosida xavfsizlik va adolatni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. ECHR qarorlarida esa davlatning beparvoligi tufayli yuzaga kelgan iste’molchi xavfsizligi buzilishi inson huquqlari doirasida baholanmoqda. Shu bois, xalqaro huquqiy mexanizmlarni soddalashtirish va uyg‘unlashtirish, xususan, Hague Judgments Convention, UNCITRAL Mediation Rules va ODR tizimlarini keng joriy etish orqali iste’molchilar manfaatlarini transchegaraviy miqyosda samarali himoya qilish imkoniyati sezilarli darajada ortmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brussels I Regulation (Recast), Regulation (EU) No 1215/2012 of the European Parliament and of the Council. – Official Journal of the European Union, 2012.
2. Piper Aircraft Co. v. Reyno, 454 U.S. 235 (1981).
<https://supreme.justia.com/cases/federal/us/454/235/>
3. Asturcom Telecomunicaciones SL v. Cristina Rodríguez Nogueira, Case C-40/08, ECLI:EU:C:2009:615. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A62008CJ0040>
4. MacPherson v. Buick Motor Co., 217 N.Y. 382, 111 N.E. 1050 (N.Y. 1916).
<https://casebriefs.com/blog/law/torts/torts-keyed-to-dobbs/the-duty-of-care/macpherson-v-buick-motor-co/>
5. Greenman v. Yuba Power Products, Inc., 59 Cal. 2d 57, 377 P.2d 897 (Cal. 1963).
<https://law.justia.com/cases/california/supreme-court/2d/59/57.html>
6. Court of Justice of the European Union (CJEU). (2017). Sanofi Pasteur MSD v. W., Case C-621/15, ECLI:EU:C:2017:484. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:62015CJ0621>
7. European Court of Human Rights (ECtHR). (2004). Öneriyıldız v. Turkey, Application No. 48939/99, Judgment of 30 November 2004.
<https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-67524>
8. Stone, R., Devenney, J. The Modern Law of Contract. – London: Routledge, 2019. – 624 b.